

KICHIK BIZNES BOSHQARUVINING USTUVOR TAMOYILLARI, MAHALLIY VA XALQARO TAJRIBA

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi iqtisod fanlari doktori professor

Ergashev Iskandar Urunovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktab tinglovchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik biznesni samarali boshqarishda muhim hisoblangan ustuvor tamoyillar tahlil qilingan. Mahalliy va xalqaro tajribalar asosida kichik korxonalarning rivojlanishi, ularga ko'maklashuvchi davlat siyosati, moliyaviy va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan. Rivojlangan davlatlarda kichik biznesning strategik boshqaruvi, innovatsiyalardan foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston sharoitida kichik biznesga oid islohotlar, ularning samaradorligi va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Kichik biznes, boshqaruv, davlat siyosati, xalqaro tajriba, strategiya, innovatsiya, raqobatbardoshlik.*

Annotation: *This article analyzes the key principles of effective small business management. Based on local and international experiences, it explores the development of small enterprises, the role of government policies, and mechanisms for financial and infrastructural support. The article highlights strategic management practices in developed countries, the use of innovation, and the importance of competitiveness. It also examines the reforms undertaken in Uzbekistan for small business development, evaluating their efficiency and future prospects.*

Keywords: *Small business, management, government policy, international experience, strategy, innovation, competitiveness*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyoti hamda jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Uning afzalligi bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslashuvchanligi, kam mablag' talab etishi, yangiliklarni

tez joriy etish va tarqatish imkoniyatlariga egaligida namoyon bo'ladi. Xalqaro moliya fondi (IMF)ning hisobotiga ko'ra, 2015 yilga kelib, dunyoda 90 foiz korxonalar kichik va o'rta biznesga tegishli bo'lib, ular butun dunyoning 63 foiz aholisini ish bilan ta'minlamoqda. Yevropa ittifoqi miqyosida kichik va o'rta biznesning umumiy salmog'i 99,8 foizni tashkil etgani holda 85 foiz aholini ish bilan ta'minlab, jami qo'shilgan qiymatning 58 foizni yaratishda ishtirok etmoqda¹. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Xitoyda ish bilan band aholining 81,4 foiz, yalpi ichki mahsulotning 54,3 foiz, Yaponiyada mos ravishda 70,8 foiz, 67,0 foiz, AQShda 50,6 foiz va 53,1 foiz kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda². Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes sohasida ish bilan band aholining 50-70foiz, xatto 80foizga yaqini faoliyat yuritadi¹.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatda tadbirkorlik ruxini shakllantirish, shu asosda odamlarda mulkdorlik tuyg'usini uyg'otishga jiddiy e'tibor qaratildi. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatga egadir.

Tadbirkor va ishbilarmonlarning bunyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o'zining ijobiy samarasini bera boshladi. Eng asosiysi – jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotgan so'nggi yillarda ham iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror tus oldi. Erkin iqtisodiyotning sinalgan tamoyillariga izchil amal qilinishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyati oshdi. Pirovardida, kichik biznesning shakllari kengayib, aholining mulkka egalik tuyg'usi uyg'ona boshladi. Bu hol kichik va o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishiga keng yo'l ochib bermoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rnini tobora mustahkamlanib bermoqda. Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yanada rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar 2017 yilda foizga, savdoda 21 foizga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 13 foizga, qurilishda 10 foizga ko'paydi. 2018 yil 1 yanvar holatiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni 229666 taga yetdi, ya'ni har 1000 kishiga o'rtacha 12,2 tadan to'g'ri keldi¹.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlantirilishi natijasida uning ulushi yalpi ichki mahsulotda 2000 yildagi 31 foizdan 2017 yilda 53,3

foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 11,3 foizdan 39,6 foizga, qurilishda 37,0 foizdan 61,7 foizdan ziyodga, aholi bandligida 49,7 foizdan 78,3 foizga, ularning eksportdagi ulushi 2000 yildagi 10,2 foiz dan 2017 yilda 27,0 foizga o'sdi. Bugungi kunda ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining hisobotiga ko'ra 2015 yilda 2014 yilga nisbatan imzolangan eksport shartnomalari hajmining 178,4 foiz, amalga oshirilgan eksport hajmining 124,1 foiz, huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ektlari sonining 133,9 foiz, xalqaro ko'rgazma va anjumanlarda ishtirok etishiga yordam ko'rsatilgan kichik biznes sub'ektlari sonining 240 foiz, mazkur tadbirlar doirasida imzolangan eksport kelishuvlari hajmining 201,5 foiz ga o'sishiga erishilgan. Shu bilan bir qatorda, shartnoma tuzishda yordam ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ekti soni (58,5 foiz), chet ellik hamkorlarni topish (64,2 foiz), xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, xalqaro sertifikatlar olish va bojxona rasmiylashtiruvi (74,9 foiz), eksport shartnomalari tuzish va ro'yxatga qo'yish (35,5 foiz) bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ekti soni 2014 yilga nisbatan pasaygan. Bu esa Jamg'arma faoliyati samaradorligini muntazam baholab va oshirib borish zarurligini vujudga keltirmoqda¹.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishni, shu bilan birga aholi bandligi va daromadlarining o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynamokda. Respublikamizda aholining ish bandligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 49,7 foiz dan 2018 yilda 78,3 foizga, Qoraqalpog'iston Respublikasida shunga mos ravishda 46,3 foizdan 75,2 foizga, Samarqand viloyatida 48,6 foizdan 84,5 foizga, Namangan viloyatida 49,0 foizdan 83,4 foizga o'sdi.

Aholining ish bilan bandligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining o'sishi dinamikasi (foizda)

Xududlar	20	200	20	201	2017 y
----------	----	-----	----	-----	--------

	00 y	5 y	10 y	5 y	
O'zbekiston Respublikasi	49,7	64,8	74,3	77,9	78,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	46,3	65,4	71,1	74,5	75,2
Viloyatlar					
Andijon	53,4	64,1	81,0	83,8	84,5
Buxoro	50,8	64,2	76,5	78,5	78,5
Jizzax	53,3	73,9	78,3	81,7	82,0
Qashqadaryo	48,2	66,3	74,8	79,6	80,0
Navoiy	35,8	25,7	55,8	60,3	60,3
Namangan	49,0	64,0	78,7	83,3	83,4
Samarqand	48,6	70,3	82,0	84,1	84,5
Surxondaryo	51,0	61,9	75,0	80,3	81,1
Sirdaryo	51,2	74,1	77,5	79,4	79,5
Toshkent	81,3	62,7	72,7	76,8	77,0
Farg'ona	52,8	69,4	77,0	80,3	80,5
Xorazm	43,4	67,2	78,4	82,4	82,9
Toshkent sh.	48,7	55,0	56,8	57,0	56,8

Biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2018 yilga Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili, deb nom berganimiz munosabati bilan barcha tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirishni 2 yilga to'xtatish, Tadbirkorlar huquqlarini ishonchli himoya qilishda Savdo-sanoat palatasining rolini oshirish, nopok tadbirkorlarga nisbatan murosasiz bo'lish, Internet tarmog'ida elektron savdolar va auksionlar orqali er uchastkalarini, jumladan, tadbirkorlar uchun ajratishning yagona tartibini o'rnatish vazifalari belgilandi.

Xulosa: Kichik biznes har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Uning samarali boshqarilishi uchun strategik yondashuv, innovatsion echimlar va maqsadli davlat qo'llab-quvvatlashi zarur. Xalqaro amaliyotlardan ko'rinishicha, kichik biznesni rivojlantirishda faol tadbirkorlik muhitini yaratish, resurslarga etishishni osonlashtirish va bozordagi raqobatdoshlikni ta'minlash muhim hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar kichik biznes uchun yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

REFERENCES

1. D.D. Suvanova. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.
2. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.
3. D.D. Suvanova. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Elektron nashr.. 2024-yil avgust. № 8-son. 277- sahifa.
4. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg'or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.
5. Suyunova D.D. Rakamli iktisodiyot tizimi iktisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of

modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375.2025>, fevral.

6. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.

7. Suyunov D. X. Scientific and theoretical approach to the implementation of digital transformation of corporate governance in joint-stock companies// Actual problems of business development and entrepreneurship in the digital economy, international scientific and practical conference. 2022.12.23

